

СЕКЦИЯ 1. Актуальные проблемы информационных технологий и автоматизации

talaba vaqtini tejash, nazorat qilishning obyektiv va individual bo'lishiga imkon beradi. Bundan tashqari, kursni o'qitishda beriladigan ma'lumotlarning ko'pligi ham dars jarayoniga kompyuter texnologiyasini tatbiq etishga bo'lgan talabni tobora ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев К.Х. др. Геометрия. Экспериментальный учебник с углубленным изучением математики для академических лицеев. - Т.: Щыгитувчи, 2002. - 424 с.
2. Гусев В.А. Каким должен быть курс геометрии? // Математика в школе. -Москва, 2002. - №3. - С. 4-8.
3. Митенев Ю.А. Использование информационно-коммуникационных технологий в обучении математике // Среднее профессиональное образование. 2011. № 6. С. 19-20.

PSIXODIAGNOSTIKADA TESTLASHTIRISH MUAMMOLARI **G.A. Rasulova, S.U. Mahmudova**

Mirzo Ulug 'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Psixodiagnostika jamiyatdagi shaxslarni tabiatini va qonunlarini psixologik diagnoz qilib o`rganuvchi fan sifatida o`zining amaliy bilimlari bilan yangicha fikrlash va dunyoqarashni shakllantirish jarayoniga ko`maklashib kelmoqda.[1]

Hozirgi kunda psixodiagnostika zamonga xos tarzda yangi bilimlar bilan jadal rivojlanib borayotgan, jamiyat uchun kerak bo'lgan ilmiy fanning amaliy sohasidir. Professional ta'lim yo'nalishi bo'yicha psixologik diagnostikaning metod va usullaridan samarali foydalanish, testlashtirish, testlarni mahalliy muhitga moslashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Chunki psixodiagnostika yordamida shaxsning aqliy imkoniyatlari, shaxsiy xususiyatlari, undagi ijtimoiy-psixologik ta'sir omillarini o'rganish orqali, har qanday faoliyat jarayonini to'g'ri rejulashtirish, uchraydigan kamchiliklarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib borish imkoniyatini yaratish mumkin.[2]

Jahonda shaxs psixodiagnostikasi yo'nalishidagi tadqiqotlarda shaxs so'rovnomalarini yaratish texnologiyalari, ularning psixometrik mezonlari, shaxs psixodiagnostikasining tushunchalar apparati va tadqiqot metodlari, davlat xizmati xodimlarini diagnostikasining akmeologik konsepsiysi, shaxs psixodiagnostikasi va psixosemantikasi, psixologik test usuli va uning takomillashtirish masalalari bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Shaxs

СЕКЦИЯ 1. Актуальные проблемы информационных технологий и автоматизации

psixodiagnostikasi metodikalarining mahalliy muhitga moslashtirishda, testlarning natijalarini qayta ishlash tizimini

unifikatsiyalashda mutaxassislar kasbiy tayyorgarlik darajasining rolini oshirish va ularning faoliyati samaradorligi mezonlarini aniqlash alohida tadqiqot muammosi sanaladi.[4.5]

Testlashtirish individual farqlarni tahlil qilishning obyektiv metodi sifatida XX asrning boshlarida vujudga kelgan.

“Test” tushunchasini fanga birinchi bo’lib, qisqa standartlashtirilgan vazifalar (savollar) hamda topshiriqlar tizimi sifatida ingliz psixolog F.Galton tomonidan kiritilgan. U insonning psixik xususiyatlarini aniqlashda, sinaluvchilarning turli xil sezuvchanlik xislatlarini o’lchashga harakat qilgan. Galtonning g’oyalari keyinchalik amerikalik psixolog D.Kettell tadqiqotlarida rivojlantirildi. [2.4.5.]

Testlashtirish jarayonida diagnostik normalar muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday norma vaqt o’tishi bilan insonlarning psixologik shakllanishi ta’sirida ro’y beradigan tabiiy almashinishlar qatorida o’zgarib boradi. Jumladan, XX asrning birinchi choragida o’rnatilgan intellektual rivojlanish normasi so’ngi chorakka to’g’ri kelmay qoldi buning sababi o’tgan vaqt oralig’ida kishilarning fikrlash jarayonidagi rivojlanish darjasini ancha oshib ketgan. O’rnatilgan qoida tartibiga ko’ra, test normalari, ayniqsa, ularning intellektga aloqadorlari har besh yilda bir marotaba qayta ko’rib chiqilishi lozim. Mavjud normalarni qayta ko’rib chiqish va yangilarni o’rnatish tipik shaklga ega bo’lib, quyidagi ko’rinish kasb etadi. Avval, test yordamida amalga oshirilishi lozim bo’lgan tadqiqot uchun sinaluvchi guruhi tanlanadi. So’ngra, ushbu sinaluvchi guruhi ijtimoiy-demografik tasnifi jihatdan kichik guruhlarga bo’linadi. Har bir kichik guruhdagi tanlangan sinaluvchi tadqiqot maqsadi yuzasidan ishlab chiqilgan test yordamida o’rganiladi. Olingan ko’rsatkichlarning o’rtacha qiymatlari asosida, mazkur sinaluvchilar auditoriyasi uchun test normasi vujudga keladi. Testda kiritilgan barcha normalarni yoritilishi uchun, albatta, uning qayerda, qanday, qachon va kim tomonidan o’rnatilganligi etilishi lozim.

Testlashtirishni o’tkazish uchun test normalariga qo’yiladigan talablardan tashqari olingan natjalarni qayta ishlash va tahlil qilish qoidalari ham mavjud. Bu toifa qoidalarning eng muhimlari quyidagilardir:

1. Mutaxassis biror testni qo’llashdan oldin, u bilan tanishib chiqishi va kerak bo’lsa o’zida qo’llab ko’rishi lozim. Bu testlashtirish jarayonida uchraydigan kamchiliklarning oldini olish imkonini beradi.

2. Test topshiriqlarini bajarishdan oldin sinaluvchilar uning barcha ko’rsatmalarini yaxshi tushunganliklariga e’tiborni qaratish kerak.

3. Testlashtirish jarayonida barcha sinaluvchilarning mustaqil va erkin ishlashlariga, bir-birlariga xalaqit bermasliklariga imkon yaratish va nazorat qilib turish zarur.

СЕКЦИЯ 1. Актуальные проблемы информационных технологий и автоматизации

4. Testlashtirish bosqichida yuzaga keladigan xatolarni chetlab o'tish maqsadida, barcha testlar uchun asoslangan va tekshirilgan qayta ishlash hamda tahlil qilish jarayonlari bo'lishi kerak. Bu birlamchi ma'lumotlarning matematik-statistik qayta ishlanish usullariga daxldor bo'lib, oldindan jiddiy ko'rib chiqilgan bo'lishi lozim. [3]

Amaliy testlashtirishga o'tishdan oldin, unga nisbatan tayyorgarlik ishlarini bajarish kerak. U quyidagilardan iborat:

Sinaluvchilarga test taqdim etilib, uni qanday o'tkazilishi maqsadi, olingan natijalarining kelajagi va uni hayotda qay tarzda qo'llash mumkinligi tushuntiriladi. So'ngra barcha sinaluvchilarga tushunarli holda test ko'rsatmalar beriladi. Sinaluvchilar hamma ko'rsatmalarни yaxshi tushunganliklariga ishonch hosil qilingandan so'ng, psixolog hamma talablarga rioya qilgan holda testlashtirish jarayonini amalga oshirishi mumkin.[2]

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.**Ganiyeva X.A.Psixodiagnostika Farg`ona- 2007
- 2.**Hayitov O.E. Psixodiagnostika o`quv qo'llanma Toshkent-2007
- 3.**Jalilova S.X., G`ayibova N.A. Umumi psixodiagnostika Toshkent-2018
- 4.** Shaxs psixodiagnostikasi metodikalarining ilmiy-amaliy asoslari 19.00.01 – psixologiya tarixi va nazariyasi. umumi psixologiya. shaxs psixologiyasi psixologiya fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent– 2020
- 5.**Rasulov A. I. Psixodiagnostika O'quv-metodik qo'llanma Toshkent-2019

O'QUVCHILARNI FAN OLIMPIYADALARIGA TAYYORLASHDA GEOMETRIK MASALALARING AHAMIYATI

¹G.N. G'oyibnazarova, ²A.Usmanov

¹Toshket shahridagi Belarus- O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar institeti, ²Jizzax davlat pedagogika universiteti

O'quvchilarning fikrlashlarini rivojlantirishda va ularni tarbiyalashda, hamda geometriya fanidan egallangan bilimlarni amaliyatga tadbiq etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda masalalarning roli muhimdir. Masala yechishni to'g'ri o'rgatish o'quvchilarda matematik bilim, ko'nikma va malakalarini yuqori darajada shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Maktab o'quvchilari bilan ishlash tajribasi shuni ko'rsatadiki, tenglama va tengsizliklarni yechishga nisbatan matnli masalalarni yechishda o'quvchilar ko'proq qiyinchilikka uchraydilar. Masala yechishning eng qiyin jihat shuki, no'malum kattalikni topish uchun tanlanadigan usul eng qisqa bo'lishi kerak. Bu jarayon turli masalalar uchun bir xil bo'lmaysdan, har bir masala uchun turlichalashda.